



QURILISH MATERIALLARI SANOATI TIZIMI VA UNING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya:

O'zbekistonda qurilish materiallari sanoati tizimi mohiyati keng qamrovli bo'lib, u mamlakatning iqtisodiyoti, ijtimoiy infratuzilmasi va qurilish sohasini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Qurilish materiallari sanoatining tizimi va nazariy asoslarini tushunish uchun, avvalo, uning tuzilishi, ishlash mexanizmi, ishlab chiqarish texnologiyalari, iqtisodiy va ekologik jihatlarini haqida to'liq tasavvurga ega bo'lish zarur. Ushbu maqolada qurilish materiallari sanoatining tarkibiy tuzilishi va qurilish materiallari bozorini tadqiq etish usullarining nazariy asoslari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar:

Qurilish materiallari, sanoat, ijtimoiy infratuzilma, ishlab chiqarish, texnologiya, qurilish materiallari bozori, tarmoq.

Information about the authors

Raxmatullayeva Diyoraxon Doniyor qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti 2-bosqich magistratura talabasi

KIRISH

Respublikamizda raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish va eksport qilish bo'yicha barqaror o'sish suratlarini ta'minlash, shuningdek, korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga qaratilgan qurilish materiallari sanoatidagi tarkibiy o'zgartirishlarni yanada chuqurlashtirish yuzasidan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Qurilish sanoati global iqtisodiyotning muhim sohalaridan biri hisoblanadi. Qurilishga kiritiladigan investitsiyalar qisqa muddatda yangi ish o'rinlarini ochishga yordam bersa, o'rta va uzoq muddatda esa qurib foydalanishga topshirilgan infratuzilmaviy ob'yektlar transport harajatlarini qisqartiradi, odamlar hayotini yaxshilaydi va eng muhimi iqtisodiy o'sish sur'atlarini jadallashtiradi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tashabbusi bilan ishlab chiqilgan va qabul qilingan 2017-2021 yillarga mo'ljallangan Harakatlar 7 strategiyasida bino-inshootlar, yangi sanoat ob'yektlarini barpo etish, temir yo'l va avtomobil, turar-joylar qurishni jadallashtirish bo'yicha qurilish sanoatiga iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi kuch – lokomotivi sifatida alohida urg'u berilgan.¹

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son, O'zbekiston-2030'' strategiyasida ham sanoatning "drayver" sohalarini rivojlantirish va hududlarning sanoat salohiyatini to'liq ishga solish maqsad qilingan. Bunda Qurilish materiallarini ishlab chiqarish hajmini 2 baravarga ko'paytirish va yangi turdagi energiya tejankor materiallarini ishlab chiqishni kengaytirish ko'zda tutilganligi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotida qurilish materiallari sanoati muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rish mumkin.²

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "2017- 2021yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'risida"gi F-4849-sonli Farmoyishi. 14.02.2017

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son „O'zbekiston-2030'' strategiyasi



Ushbu maqolada qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoati tizimining mohiyati , mazmuni, tarmoqlar tarkibi va undagi holat keltirilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Qurilish sanoati global iqtisodiyotning muhim sohalaridan biri hisoblanadi. Qurilishga kiritiladigan investitsiyalar qisqa muddatda yangi ish o‘rinlarini ochishga yordam bersa, o‘rta va uzoq muddatda esa qurib foydalanishga topshirilgan infratuzilmaviy ob‘yektlar transport harajatlarini qisqartiradi, odamlar hayotini yaxshilaydi va eng muhimi iqtisodiy o‘shish sur‘atlarini jadallashtiradi.

Shu boisdan ham xorijlik ham o‘zbekistonlik olimlar qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoatini chuqur o‘rganib , buning ustida ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borganlar.

Qurilish so‘zi fransuz tilidagi, Construction’’ so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, ot va fe‘l sifatida foydalanadi hamda strukturaning xarakteri va qurilish yoki yaratish xarakatini tavsiflaydi.³

Xorij olimlari, jumladan, J.Uells qurilish soxasiga quyidagicha ta‘rif bergan: Qurilish-infratuzilma va ishlab chiqarish obyektlarini qurish orqali milliy iqtisodiyotga katta xisssa qo‘shadi.⁴

Sanoatga ta‘rif beradigan bo‘lsak, sanoat shunday tarmoqki, barcha mamlakatlarning siyosiy, iqtisodiy va tashkiliy intilishlari, ularning xo‘jalik jihatdan birlashishi, ya‘ni iqtisodiy integratsiya tavsifida o‘z ifodasini topadi. Natijada barcha mamlakatlarning tabiiy, mehnat va moliyaviy resurslaridan, fan-texnikaning barcha yutuqlaridan oqilona foydalanish imkoniyatlari yuzaga keladi (I.S.Xotamov,G.R Madraximova , 2022).

Buyuk Britaniya olimi D.A Turin esa quyidagicha fikr bildiradi: Qurilish mamlakatning hamma joylarida amalga oshiriladi va undan tadbirkorlikni rivojlantirish va texnologiyalarni mamlakatning barcha fuqarolariga yetkazish uchun foydalanish mumkin⁵.

MATERIALLAR VA METODLAR

Maqola mavzusi bo‘yicha ilgari amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar, ko‘plab olimlar tomonidan yozilgan adabiyotlarni o‘rganish orqali tadqiqot mavzusi bo‘yicha kerakli savollar shakllantirildi.Maqolada qurilish materiallari sanoati tizimining mohiyatini nazariy jihatdan yoritib berishda tasviriy, statistik va sintez usullaridan foydalanilgan.

Qurilish sanoati O‘zbekiston iqtisodiyotning ustuvor yo‘nalishi sifatida milliy iqtisodiyot tarmoqlari orasida barqaror o‘shish sur‘atlarini qayd etayotgansohalardan hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-songa muvofiq 2022-2026- yillarga mo‘ljallangan O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida: Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta‘minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish, bunda qurilish materiallari ishlab chiqarish hajmini 2 barobarga oshirish maqsad qilingan⁶.

Iqtisodiy vazifasiga ko‘ra qurilish materiallari sanoati “A” toifadagi vositalar ishlab chiqarishiga mansub va og‘ir sanoatning sohalaridan biri bo‘lib hisoblanadi.

Sohalar bir nechta tarmoqlarga bo‘linadi. Qurilish materiallari sanoati tarkibiga bir nechta ishlab chiqarish turlari kiradi:

³ The International Standart Industrial Classification of All Economic Activities (ISIC)Rev-4, United Nation . New York, 2008.

⁴ „Qurilish tashkilotlarida operatsion faoliyat hisobi va tahlilini takomillashtirish’’ . A.A. Karimov Sh.A Xalilov Monografiya . Toshkent „Iqtisod -Moliya’’ 2022

⁵ Turin D.A The Construction Industry: Its Economic Significance and Its Role in Development. 2nd edition , Building Economics Research Unit, University College London.

⁶ <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>



- sement;
- asbestosementli mahsulotlar;
- yumshoq, to‘shama va suvdan himoya materiallari;
- devor materiallari;
- qurilish keramikasi;
- polimer xomashyosidan tayyorlangan qurilish materiallari va buyumlari;
- norudaviy qurilish materiallari;
- tabiiy toshdan qurilish va bezak materiallarini tayyorlash va ularga ishlov berish;
- g‘ovakli to‘ldiruvchilar;
- ohak, gips va mahalliy bog‘lovchi materiallar;
- issiqlikdan himoya materiallari;
- asbestli;
- nometall rudasidan;
- shisha;
- sanitar-texnik jihozlar tayyorlash korxonalarini .

Yuqorida nomlari keltirilgan korxonalaridan tashqari qurilish materiallari korxonalariga quyidagilar kiradi:

- yig‘ma temirbeton zavodi;
- po‘lat va alyuminiy konstruksiyalari zavodi;
- deraza va eshik bloklari tayyorlash korxonalarini;
- yog‘och materiallari tayyorlash zavodi;
- beton, qorishma va asfaltobeton zavodlari;
- inventar bino va xonalar ishlab chiqarish zavodi;
- qurilish mashinalari, agregat va ularning bog‘lovchi qismlarini kapital ta‘mirlash zavodlari;
- quruq qorishmalarni ishlab chiqarish zavodlari.

TAHLIL VA NATIJALAR

Qurilish materiallari sanoatining tarmoq tarkibi:

| № | Tarmoq nomi | Tarmoq qismiga kiruvchi korxonalar |
|---|---------------------------------|--|
| 1 | Sement sanoati | Sement ishlab chiqarish korxonalarini. Sement xomashyosini konlari va tegirmon korxonalarini |
| 2 | Asbestsement buyumlari sanoati | Asbestsemet listlar, trubalar, detallar ishlab chiqarish korxonalarini |
| 3 | Yumshoq tom va gidroizolyatsion | Ruberoid, pergamin, to‘l, kabi tom materiallari va porizol, izol kabi gidroizolyatsion materiallar |



| | materiallar sanoati | ishlab chiqarish korxonalari |
|----|--|---|
| 4 | Yig'ma temir-beton va beton konstruksiya buyumlari sanoati | Shpal, tyuring, truba kabi keng ko'lamda maxsus beton buyumlar ishlab chiqarish korxonaalari |
| 5 | Devor materiallari sanoati | Devor bloklari (silikat beton, shlakobeton) va tabiiy toshdan devor ishlab chiqarish korxonalari |
| 6 | Qurilish keramikasi sanoati | Keramik xomashyo qazish, qayta ishlash, keramik plita, truba va boshqa buyumlar ishlab chiqarish korxonalari |
| 7 | Polimer xomashyo asosidagi qurilish materiallari | Linoleum, mastika, tulli buyumlar, penopolistrol plitalar va boshqa polimer asosida buyum ishlab chiqarish korxonalari |
| 8 | Ruda qurilish materiallari sanoati | Qum, shag'al, chaqiq tosh kabi materiallarni qazib olish, maydalash, boyitish ishlab chiqarish korxonalari |
| 9 | Tabiiy tosh materiallardan bezak buyumlar ishlab chiqarish korxonalari | Granit, mramor, ohaktosh kabi tog' toshlaridan buyumlar ishlab chiqarish korxonalari |
| 10 | Yengil to'ldiruvchilar sanoati | Keramzit, agloporit, pemza, kabi yengil to'ldiruvchi va ularning xomashyosini ishlab chiqarish korxonalari |
| 11 | Mahalliy, gips va ohak bog'lovchi materiallar | Gips va u asosida turli buyumlar ishlab chiqarish ohaktosh, ohak-shlak kabi bog'lovchilar ishlab chiqarish korxonalari |
| 12 | Issiqlik izolyatsion materiallar sanoati | Mineral paxta va u asosida buyumlar ishlab chiqarish korxonalari |
| 13 | Nometallruda sanoati | Kaolin, slyuda, grafit va ular asosida buyumlar ishlab chiqarish korxonalari |
| 14 | Asbest sanoati | Asbest ishlab chiqarish va uning rudasini qazib oluvchi korxonalar |
| 15 | Boshqa tarmoq qismlari | Tovar beton ishlab chiqarish, qurilish qorishmasi va asfaltobeton ishlab chiqarish va yuqorida ko'rsatilmagan boshqa qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalari |



| | | |
|--|--|--|
| | | |
|--|--|--|

1-jadval: Qurilish materiallari sanoati tarmoq tarkibi⁷

Oxirgi besh yilda respublikada qurilish materiallari sanoatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilganligi natijasida, bugungi kunda ushbu tarmoq mamlakat iqtisodiyotning asosiy "drayver" sohasiga aylanmoqda. Yirik investitsiya loyihalari amalga oshirilmoqda. Yangi sanoat korxonalarini qurib foydalanishga topshirilmoqda, shuningdek, innovatsion energiya tejamkor qurilish materiallari ishlab chiqarish o'zlashtirilyapti. Bu esa Respublika sanoatining yuksalishi, ishsizlikni kamaytirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Tahlillarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, joriy yilda 38 trln so'mlik qurilish materiallari ishlab chiqariladi. Yanvar-sentyabr oylarida 32,1 trln. so'mlik mahsulot tayyorlangan. Jumladan, 73 mln. kv.m - gipsokarton, 13,3 mln.tonna - sement, 2,6 mln.o'ram - gulqog'oz (oboyi), 36 mln. kv.m - keramik plitka, 34 mln kv.metr – qurilish oynasi, 301 ming tonna - quruq qurilish aralashmasi kabi qurilish materiallarini ishlab chiqarildi.

Eng muhimi, 2024-yilda 2,2 mlrd dollar investitsiya loyihalari amalga oshiriladi. Yanvar-sentyabr oylarida soha korxonalarini tomonidan 1,5 mlrd dollarlik investitsiyalar o'zlashtirilgan. E'tiborlisi, 658 mln dollarlik 212 ta loyihalar ishga tushirilgan hamda ushbu loyihalar bo'yicha 6 ming 24 ta yangi ish o'rni yaratildi.

2024-2025-yillarda hududlarda 529 ta qiymati 4,5 mlrd. dollarlik loyihalar amalga oshiriladi, natijada 25 646 nafar yangi ish o'rinlari yaratiladi. Shundan, 2024-yilda qiymati 1,1 mlrd. dollar bo'lgan 309 ta loyihani ishga tushirish rejalashtirilgan.

Jumladan, Navoiy viloyatida "National Ceramics" MCHJ XK, Qoraqalpog'iston Respublikasida "Qoraqalpoq Basaltwool" MCHJ, Jizzax viloyatida "Stone Lider" MCHJ tomonidan ishlab chiqarish loyihalari amalga oshirilmoqda.

O'tgan 9 oyda 620,6 dollarlik qurilish materiallari eksport qilishga erishildi. Ushbu raqamlar yil so'ngigiga qadar 900 mln dollarga yetkaziladi. 2023-yilda 653,8 mln dollarlik qurilish materiallari chet elga sotilgan.


Mahalliyashtirish borasida ham uyushma tomonidan bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2024-yil yanvar-sentyabr holatiga 1,9 trln so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan bo'lib, bular : yuqori markali sement 1 trln so'm, gipsokarton 270 mlrd so'm, qurilish oynasi 261,5 mlrd so'm, keramika mahsulotlari va keramogranit 219,1 mlrd so'mlik mahsulotlar mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarildi.⁸

2024- yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 5,5 % ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 19,7 % ga o'sdi va ishlab chiqarish hajmi 32 992,7 mlrd so'mga to'g'ri keldi.⁹

⁷ „Qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarining iqtisodiyoti“ . Ibragimov S.O O'quv qo'llanma ; Toshkent-2021

⁸ https://uzsm.uz/uz/press_center/news/qurilish-materiallari-sohasida-amalga-oshirilayotgan-ishlar-raqamlarda/

⁹ https://stat.uz/img/press-reliz-yanvar-oktabr-uzb__p85155.pdf



1-rasm: 2024- yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi

XULOSA VA TAKLIFLAR

Qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoatining eng muhim vazifalari bu mahalliy xom ashyo materiallardan keng foydalanish, buyum ishlab chiqarishni rivojlantirish, ularning sifatini o'rttirish, qurilishning tannaxsini kamaytirish, shuningdek, eskirib qolgan mashina – uskunalarini zamonaviy texnologiyalarga almashtirishdir. Bu ishlarda texnikaning kelajakdagi taraqqiyoti qurilish usullarini tobora sanoatlashtirishni va oldindan ishlatilib kelinayotgan ayrim qurilish materiallari o'rniga yangilarini ishlatish hamda ularni ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirishda respublikamizdagi standartlashtirish tizimi katta ahamiyatga ega.

O'zbekistonda qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoatida mavjud bo'lgan asosiy muammolarni va ularning yechimlarini ko'rib chiqaylik. Bu sanoatning rivojlanishi uchun kerakli o'zgarishlar va takliflar quyidagi shaklda bo'lishi mumkin:

Qurilish materiallarini ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan xom ashyo, masalan, qum, sement, g'isht va boshqa tabiiy resurslar ba'zan yetarli darajada va sifatda bo'lmaydi. Bu ishlab chiqarishning samaradorligini pasaytiradi va narxlarning oshishiga olib keladi. Buning yechimi

- Xom ashyo bazalarini kengaytirish: Yangi konlarni kashf etish va mavjudlarini samarali ishlatish.
- Mahalliy xom ashyo resurslaridan foydalanish: Mahalliy resurslar hisobiga ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish.
- Tashqi resurslardan foydalanishni optimallashtirish: Xalqaro hamkorlikni kuchaytirish va xom ashyo ta'minotini mustahkamlash

Qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoatida eskirgan texnologiyalar va uskunalar qo'llanilishi, ishlab chiqarishning past samaradorligi va sifatning yomonlashishi. Buning yechimi:

- Yangi texnologiyalarni joriy etish: Zamonaviy va energiya tejamkor texnologiyalarni ishlab chiqarish jarayoniga kiritish.
- Innovatsiyalarni rivojlantirish uchun investitsiyalarni jalb qilish: Xususiy va davlat sektoridan texnologik yangilanishlarga investitsiyalarni jalb qilish.
- Xalqaro tajriba va hamkorlikni kengaytirish: Dunyo miqyosidagi ilg'or texnologiyalar bilan tanishish va import qilish.

Qurilish materiallarini ishlab chiqarish energetika va boshqa tabiiy resurslarni talab qiladi. Energiya narxlarining oshishi ishlab chiqarish xarajatlarini orttiradi. Buning yechimi:

- Energiya samaradorligini oshirish: Yangi, energiya tejavchi uskunalar va texnologiyalarni joriy etish.



- Qayta tiklanuvchi energiya manbalariga investitsiyalarni oshirish: Quyosh, shamol, bioenergiya kabi qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni rivojlantirish.
- Mahalliy energiya manbalarini samarali ishlatish: O'zbekistondagi mahalliy energiya manbalaridan samarali foydalanish, xususan, tabiiy gaz va ko'mirni optimal ishlatish.

Yuqoridagi muammolarni yechish uchun, davlat va xususiy sektor o'rtasida samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish, yangi texnologiyalarni joriy etish, kadrlar tayyorlash va eksport salohiyatini oshirish kabi choralar zarur. Bu orqali O'zbekistonda qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoatini yanada rivojlantirish mumkin bo'ladi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "2017- 2021yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'risida"gi F-4849-sonli Farmoyishi. 14.02.2017
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son „O'zbekiston-2030” strategiyasi
3. The International Standart Industrial Classification of All Economic Activities (ISIC) Rev-4, United Nation. New York, 2008
4. „Qurilish tashkilotlarida operatsion faoliyat hisobi va tahlilini takomillashtirish” . A.A. Karimov Sh.A Xalilov Monografiya . Toshkent „Iqtisod -Moliya” 2022
5. Turin D.A the Construction Industry: Its Economic Significance and Its Role in Development. 2nd edition, Building Economics Research Unit, University College London
6. Qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarining iqtisodiyoti” . Ibragimov S.O O'quv qo'llanma ; Toshkent-2021
7. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
8. https://uzsm.uz/uz/press_center/news/qurilish-materiallari-sohasida-amalga-oshirilayotgan-ishlar-raqamlarda/
9. https://stat.uz/img/press-reliz-yanvar-oktabr-uzb__p85155.pdf